

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
R.To'rayev

2024-yil 08

Ko'rsatga o'rinchi MD-70230104-1,01
2024-yil 08

ADABIYOTSHUNOSLIKDA ILMIY-TADQIQOT METODOLOGIYASI
FANINING
O'QUV DASTURI
(1-kurs magistratura talabalari uchun)

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar
Magistratura 70230104 - Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

Termiz – 2024

| | | | | |
|----------------------------|----------------------------------|--|------------------------------|---------------------------------|
| Fan/modul kodi ITM 104 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 1 | ECTS – Kreditlar 4 |
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi | 60 | 60 | 120 |

| | |
|----|--|
| 2. | <p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – badiiy asarni nazariy tahlil qilish uchu yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyatlarini misollar asosida o'rganish, umuman, adabiyotshunosning ilmiy estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.</p> <p>Fanning vazifasi - “Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi fanining vazifasi, tinglovchilarga ilmiy-tadqiqot turlari, ilmiy-tadqiqot tarkib ilmiy tadqiqot tarixi, metodlar va metodologiya masalalarini, adabiyotshunosli metodlarining tarixi, metodlar asoschilari va asosiy ilmiy tamoyillar adabiyotshunoslik metodlari bilan ijodiy metodning farqini va boshqa ilmiy adabiy, tadqiqiy-metodologik masalalarni o'rgatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot turlari</p> <p>Badiiy va ilmiy ijod munosabati. Badiiy ijodni ilmiy-nazariy asosda tushuntirish. Ilmiy tadqiqotda qo'yilgan muammo tabiati. Fundamental tadqiqot, muammoli tadqiqot, xronologik tadqiqot, davriy tadqiqot, disertatsion tadqiqot va boshqalar.</p> <p>2-mavzu. Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot turlari(davomi)</p> <p>Ilmiy-tadqiqot jarayoni. Adabiyotshunoslikda ilmiy tadqiqot ob'ekti, mavzulari, mavzularning dolzarbligi va boshqa jihatlar. Ilmiy bilish jarayoni: izchillik, tizimlilik, tasnif, ilmiy mantiq. Tadqiqot tarkibi, tasnif va reja. Ilmiy</p> |
|----|--|

tadqiqot maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot uchun manbalar to'plash, ilmiy yangiligi va boshqalar.

3-mavzu. Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodlari tasnifi

Adabiyotshunoslik metodlari ko'lami, adabiyotshunoslik metodlari tasnifi. Badiiy asarga yondashuv usullarining o'ziga xosligi. Badiiy asarni baholashda metodologik asosning ahamiyati. Ilmiy bilish va dunyoqarash masalasi.

4-mavzu. Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodlari tasnifi(davomi)

Adabiyotshunoslik metodlari va ijodiy metodlar munosabati. Metodlarning dunyo adabiyotshunosligida tasnifi; badiiy asar g'oyasiga, poetik shakli, muallifi va kitobxonga tegishli metodlar masalasi; metodlar chegarasi va o'zaro uyg'unligi; adabiyotshunoslikda mavjud bo'lgan ilmiy-tadqiqot metodlari badiiy asarga yondashuvning yangi usullari bilan boyib boradigan soha ekani.

5-mavzu. Ijodkor shaxsiga tegishli metodlar.

Jahon adabiyotshunosligida biografik metodga xos belgilar; bu metodga xos eng muhim nazariy tamoyillar. Ijodkor hayotidagi ma'lum bir voqea-hodisalar uning yozgan asarlarida qaysidir tarzda o'z aksini topishi. Biografik metod tarixi, asoschilari, vakillari; biografik metod va biografik janr masalasi; o'zbek adabiyotshunosligida biografik metodda ham asarlar yozilayotganligi.

6-mavzu. Ijodkor shaxsiga tegishli metodlar.(davomi)

Psixologik metodning o'ziga xos xususiyati. Psixologik metodning ikki qirrası. Badiiy matnidagi psixologik tasvir elementlariga diqqat qaratilishi. Psixologik metodning murakkablashuvi. Psixologik metod va psixoanaliz masalasi.

7-mavzu. Psixobiografik metod imkoniyatlari

Dunyo adabiyotshunosligida mavjud metodlardan biri ekanligi. Ikki metodga xos jihatlarning mujassam topishi. Badiiy asar va ijodkor shaxsi tadqiqidagi o'ziga xosliklar. Badiiy asarga ijodkor tarjimai holi orqali yondashuvning afzalliklari.

8-mavzu. Badiiy asar mazmunini tekshirishga qaratilgan metodlar

Sotsiologik metod tabiati; badiiy talqin va ilmiy talqin munosabati; rus adabiyotshunosligi sotsiologik metod ko'lami; 20-yillar o'zbek adabiy tanqidchiligi va sotsiologik metodi muammosi; vulgar sotsiologizm hodisasi;

9-mavzu. Badiiy asar mazmunini tekshirishga qaratilgan metodlar(davomi)

XX asr o'zbek adabiyotshunosligida sotsiologik metodning o'rmi va ahamiyati. Badiiy asar matnini tadqiq qilishga yo'naltirilgan metodlar. 20-yillar o'zbek adabiy tanqidchiligi.

10-mavzu. Badiiy asar shakliga doir metodlar

Formal metod badiiy asar shakliga qaratilgan metod sifatida. Formal metodning muhim tamoyillari; rus formal maktabi xususida, formal metodning dunyo adabiyotshunosligiga ta'siri. Struktural-analiz metodiga xos tamoyillar;

11-mavzu. Badiiy asar shakliga doir metodlar(davomi)

struktural-analiz metodining dunyo adabiyotshunosligida tutgan o'rni; rus adabiyotshunosligida struktural metod maktabining maydonga kelganligi; o'zbek adabiyotshunosligidagi struktural metodda yozilgan ayrim maqolalar haqida

12-mavzu. Lingvistik metod tabiati.

Badiiy asar tilini tekshiradigan metod tabiatan tilshunoslik fani bilan bog'liq ekanligi; dunyo adabiyotshunosligida bu metoddan unumli foydalanilishi; adabiyotshunoslikda badiiy til va poetik nutq muammosi; badiiy asarning immanent tahlili va lingvistik metod masalasi; o'zbek adabiyotshunosligida shu yo'nalishda yozilgan ilmiy asarlar tavsifi.

13-mavzu. Statistik metod

Filologik sohada statistik metodning qo'llanish tarixi. Statistikaning faqat sanoqlardan iborat emasligi. Badiiy asar tarkibidagi unsurlarni sanash imkoniyati. Ijodkorning so'z qo'llash mahorati. Poetik nutqni statistika asosida taqiq etish masalasi.

14-mavzu. Adabiyotshunoslikdagi ilmiy-tadqiqot metodlar ko'lami

Dunyo adabiyotshunosligida ko'plab metodlar mavjudligi; o'zaro yaqin va uyg'un metodlar haqida; germenevtik metod imkoniyatlari; badiiy asar retsepsiyasi; adabiy matnga yondashuv boshqa usullari to'g'risida; adabiy ob'ektga tarixiy, milliy, umuminsoniy nuqtai nazaridan yondashuv masalasi.

15-mavzu. Adabiyotshunoslikdagi ilmiy-tadqiqot metodlar ko'lami

Sharq va g'arb adabiyotshunosligida ko'plab metodlar mavjudligi; o'zaro yaqin va uyg'un metodlar haqida; germenevtik metod imkoniyatlari; badiiy asar retsepsiyasi; adabiy matnga yondashuv boshqa usullari to'g'risida; adabiy ob'ektga tarixiy, milliy, umuminsoniy nuqtai nazaridan yondashuv masalasi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar *(Amaliy mashg'ulotlari ma'ruza mashg'uloti mavzulari asosida tashkil etilishi lozim)*

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

“Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi” fani bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Ilmiy tadqiqot tabiati va tarkibi.

Adabiyotshunoslik tarixi va adabiyotshunoslik metodologiyasi;

Ijodiy metod va adabiyotshunoslik metodlari masalasi;

| | |
|----|---|
| | <p>Rus formal metodi asoschilari, namoyandalari; Biografik metodning o'ziga xosligi; Struktural analiz metodi va o'zbek adabiyotshunosligi. Metodologiya va ijod psixologiyasi; Germenevtikaning metodologik imkoniyati. O'zbek adabiyotshunosligida sotsiologik metod masalasi. V.G.Belinskiy uslubi O'zbek adabiyotshunos olimlarining metodlarini aniqlash amaliyoti O'zbek adabiyotshunosligida retseptsiya masalasi</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar <i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i> Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Amaliy mshg'ulotlarda tayyorgarlik ko'rish; 2. Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish; 3. Formal va sturuktural metodlarni qiyoslash; 4. O'zbek adbiyotshunosligida biografik metod masalasi. 5. Yozuvchi uslubi, matn ritmikasi masalasi. 6. Sh.Sent-Byov, A.Morua asarlarini o'qish. 7. V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov, M.Baxtin va Y.Boryev asarlarini o'qish. 8. Rus adabiyotshunoslari ilmiy asarlarini o'qish. 9. O'zbek adabiyotshunos olimlarining asarlarini o'qish, tahlil qilish.</p> <p>Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya qilinadi.</p> |
| 3. | <p>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • “ Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fani dasturi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy dasturlarga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan. “Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi” fani bo'yicha bakalavr talaba adabiyotshunoslik predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid, adabiy turlar va adabiy janrlar, ijodiy uslublar va ijodiy yo'nalish, oqimlar, badiiy adabiyotning o'ziga xosligi haqida <i>bilimga</i>; |

| | |
|----|---|
| | <ul style="list-style-type: none"> • “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanidan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish, asar syujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish <i>ko'nikmalariga</i>; <p>adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasining imiy-nazariy muammolarini tizimli o'rganish, tadqiq qilish kabi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.</p> |
| 4. | <p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | <p style="text-align: center;">VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom”ning 15- va 30-bandlariga asosan Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi fanidan I-semestrda 150 soat (semestri va soat miqdori aniq ko'rsatilsin) <u><i>o'quv yuklamasini o'zlashtirgan</i></u>, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra <u><i>ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan</i></u> talabaga I-semestrda 5 (semestri va krediti aniq ko'rsatilsin) kredit beriladi.</p> <p>Talaba belgilangan <u><i>ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.</i></u></p> <p>Talabalarning bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.</p> <p style="text-align: center;">Talabalarning bilimni baholash mezonlari:</p> <p><i>Dastur tuzuvchilar uchun eslatma: professor-o'qituvchi tomonidan fanning xususiyatidan kelib chiqib baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og'zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar kabi turlardan tarkib topgan baholash mezonlari aks ettirilishi shart.</i></p> <p>5 (a'lo) baho - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> |

| | |
|----|---|
| | <p>4 (yaxshi) baho - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p>3 (qoniqarli) baho - talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p>2 (qoniqarsiz) baho - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.</p> |
| 6. | <p>Asosiy adabiyotlar Asosiy adabiyot 1. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Muharrir, 2011.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar 1. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-2 jild. T.: "Mumtoz so'z", 2013, 2016. 2. Hojjahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999 3. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – T.: O'zbekiston, 2014. 4. Jahon adiblari adabiyot haqida. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2010. 5. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – T.: "Akademnashr". 2014. 6. Normatov U. Ijod sehri. T.: "Sharq", 2007. 7. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008. 8. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004. 9. Sharq mumtoz poetikasi (H.Boltaboev talqinida). – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 10. Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2007. 11. Ulug'ov A. Qalb qandili – T.: Akademnashr, 2013. 12. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: «O'zbekiston»,1993. 13. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. Uchebnik. – M.: Visshaya shkola, 1999. 14. To'laboyeva R. Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. – T.: Nurafshon businis, 2020.</p> <p>Axborot manbalari 1. www.litera.ru. 2. www.literature.uz</p> |

| | |
|----|---|
| | <p>3. www.ziyonet.uz</p> <p>4. www.natlib.uz</p> <p>5. www.ziyouz.com</p> <p>6. www.turonlib.uz</p> |
| 7. | Fan dasturi Universitet Kengashning 2024-yil <u>30.08</u> dagi <u>1</u> sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | <p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Arslonov Abdimurod - TerDU "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasini mudiri, dotsent</p> <p>Raimova Sayyora - TerDU "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasini dotsenti</p> |
| 9. | <p>Taqrizchilar:</p> <p>Q.Qahramonov - O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, f.f.d.</p> <p>A.Tilavov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti "O'zbek adabiyoti tarixi va folklor" kafedrasini dotsenti, f.f.n.</p> |